


“TASDIQLAYMAN”
Toshkent to‘qimachilik va yengil
sanoat instituti birinchi prorektori

 **B. Nasimov**

“ ” 2025-yil



Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutiga
suhbat asosida 2-kursga o‘qishga qabul qilishning
BAHOLASH ME‘ZONI

Abituriyentga suhbat komissiyasi tomonidan quyidagi to‘rtta mavzuning har biridan, bittadan, jami to‘rtta savol beriladi. Har bir mavzu bo‘yicha berilgan bitta savolga maksimum 25 ballgacha, jami to‘rtta savolga umumiy 100 ballgacha baholash mumkin.

T/r	Savol mavzulari	Maksimal ball
1	Mamlakatda o‘z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunishiga.	25
2	Bakalavriat ta‘lim yo‘nalishini tanlashdagi motivatsiyasiga (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunishi, unga doimiy qiziqish ko‘rsatishiga).	25
3	Shaxsiy-kasbiy xususiyatlariga (o‘qishga qobiliyati, kasbiy vazifalarni hal qilishdagi amaliy faoliyati, intizomlilik, hamjihatlik, mas‘uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlarining mavjudligi, shuningdek, o‘z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlariga).	25
4	Tanlangan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko‘nikmalarining mavjudligiga.	25
	Umumiy	100

Jami to‘plash mumkin bo‘lgan eng yuqori ball **100 ballni** tashkil etadi.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag‘iga asosan, Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a‘zolari tomonidan qo‘yilgan ballarning **o‘rtachasi 67 ball va undan yuqori bo‘lganda abituriyent suhbatdan o‘tgan hisoblanadi.**

**Suhbat komissiya tomonidan berilgan har bir savolga
abituriyentning bergan javobini baholash me'zoni**

T/r	Bitta savolga berilgan javobni baholash me'zoni	Ball
1.	Abituriyent berilgan savol bo'yicha umuman tushunchaga ega bo'lmaganda, savolga umuman javob bera olmaganda.	0
2.	Abituriyent berilgan savol bo'yicha ta'riflarda sezilarli xatolar bilan tarqoq bilimlarni ifodalovchi to'liq bo'lmagan javob berganda. Tarqoq yoki mantiqsiz fikrlarni keltirganda. Savoldagi asosiy tushuncha, nazariya va hodisalarni boshqalari bilan bog'liqligini anglamaganda. Xulosa, konkretlashtirish va qoida hamda jarayonlarning isboti mavjud bo'lmaganda. Saviyasi nisbatan past nutqqa ega bo'lganda. Suhbat komissiyasi a'zolarining qo'shimcha va aniqlashtiruvchi savollariga va mavzu bo'yicha boshqa savollariga ham qoniqarsiz javob berganda.	1-8
3.	Abituriyent berilgan savolga to'liqsiz javob berganda, ya'ni, javob yetarlicha, batafsil va to'liq bo'lmaganda. Javobning mantiqiyliigi va ketma-ketligi buzilganda. Tushunchalarni ochib berishda va atamalardan foydalanishda xatolarga yo'l qo'yganda. Abituriyent muhim va muhim bo'lmagan xususiyatlarni, sabab-natija munosabatlarini mustaqil ravishda aniqlay olmaganda. Nutqida tuzatishlar talab qilinganda. Umumlashtirilgan bilimlarni konkretlashtirishda va ularning asosiy qoidalarini komissiya a'zolari yordamida misollar bilan isbotlaganda.	9-16
4.	Abituriyent berilgan savolga to'liq, batafsil javob berib, mavzuning asosiy qoidalarini aniq ochib berganda. Javobda aniq tuzilma hamda ochilgan tushunchalar, nazariyalar va hodisalarning mohiyatini aks ettiruvchi mantiqiy ketma-ketlik ifodalanganda. Javob adabiy tilda, fan nuqtai nazaridan ifodalanganda. Abituriyentning bergan javobidagi kamchiliklarni komissiya a'zolari tomonidan tuzatish hollari bo'lishi mumkin.	17-21
5.	Abituriyent berilgan savolga to'liq, batafsil javob berib, mavzu haqida ongli ravishda bilimlar to'plamini aytib bera olsa va mavzuning asosiy qoidalarini ishonchli tarzda ochib berganda. Berilgan javobda aniq tuzilma hamda ochilgan tushunchalar, nazariyalar va hodisalarning mohiyatini aks ettiruvchi mantiqiy ketma-ketlik ifodalanganda. Javob adabiy tilda fan nuqtai nazaridan ifodalanganda. Abituriyent javob berish jarayonida, fikrlarini ifodalashda, o'zining yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini mustaqil ravishda tuzatish holatlari bo'lishi mumkin.	22-25

Qabul komissiyasi mas'ul kotibi



M. Xudoykulov